



O‘RTA ASR MANBALARIDA SHAYBONIYLARNING SIYOSIY MADANIY ROLI: TARIXIY BAHOLAR

Abdug‘afforova Mohinur Abdusamat qizi

*Sharof rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti
mohinurabdugafforova7@gmail.com Tel.: +99893-638-38-23*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘rta asr yozma manbalarida Shayboniylar sulolasining siyosiy va madaniy roli o‘rganilgan. Shayboniylar davrida Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan davlat boshqaruvi islohotlari, iqtisodiy siyosat, ilm-fan va san‘at rivoji manbalarga asoslanib tahlil qilingan. Maqolada Shayboniylar siyosiy faoliyatiga berilgan tarixiy baholar, ularning hukmronligi davrida mintaqadagi madaniy muhitga ko‘rsatgan ta‘siri ko‘rib chiqilgan. Turli davrlarda Shayboniylar faoliyatining baholanishi o‘zaro solishtirilib, mazkur sulolaning mintaq tarixidagi ahamiyati qayta ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot ilmiy tarixshunoslikda Shayboniylar sulolasining rolini yanada chuqurroq o‘rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Shayboniylar sulolasi, tarixiy baholar, o‘rta asr tarixchilar asarlari, tarixiy-solishtirma, o‘zaro ichki nizolar, ijobiy va tanqidiy baho, madaniy va ilmiy yutuqlar, ilmiy va adabiy merosning boyishi.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ РОЛЬ ШАЙБАНИ В СРЕДНЕВЕКОВЫХ ИСТОЧНИКАХ: ИСТОРИЧЕСКИЕ ОЦЕНКИ

Аннотация: В статье рассматривается политическая и культурная роль династии Шейбанидов в средневековых письменных источниках. На основе источников анализируются реформы государственного управления, экономическая политика, развитие науки и искусства в Средней Азии в эпоху Шейбанидов. В статье рассматриваются исторические оценки политической деятельности Шейбанидов и их влияние на культурную среду региона в период их правления. Сопоставляется оценка деятельности Шейбанидов в разные периоды и пересматривается значение этой династии в истории региона. Данное исследование имеет большое значение для дальнейшего изучения роли династии Шейбанидов в научной историографии.

Ключевые слова: Династия Шейбанидов, исторические оценки, труды средневековых историков, историко-сравнительный, внутренние конфликты, позитивная и критическая оценка, культурные и научные достижения, обогащение научного и литературного наследия.

THE POLITICAL AND CULTURAL ROLE OF THE SHAYBANIS IN MEDIEVAL SOURCES: HISTORICAL ASSESSMENTS

Abstract: This article studies the political and cultural role of the Shaybanid dynasty in medieval written sources. The state administration reforms, economic policy, development of science and art carried out in Central Asia during the Shaybanid era are analyzed based on the sources. The article examines the historical assessments of the political activities of the Shaybanids and their impact on the cultural environment in the region during their reign. The assessments of the activities of the Shaybanids in different periods are compared and the significance of this dynasty in the history of the region is reviewed. This study is of great importance for a deeper study of the role of the Shaybanid dynasty in scientific historiography.

Keywords: Shaybani dynasty, historical assessments, works of medieval historians, historical-comparative, internal conflicts, positive and critical assessment, cultural and scientific achievements, enrichment of scientific and literary heritage

KIRISH. Shayboniylar sulolasi XVI asr Movarounnahr tarixida muhim o‘rin tutadi. Ular Markaziy Osiyoda siyosiy barqarorlikni tiklash, iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ta‘minlashda muhim rol o‘ynagan. O‘rta asr tarixchilarining asarlari Shayboniylarning siyosiy faoliyatini ijobiy va tanqidiy baholash bilan birga, ularning madaniy rivojlanishdagi hissasini ham yoritadi. Ushbu maqola o‘rta asr manbalarida Shayboniylarning siyosiy va madaniy faoliyati qanday baholanganini tahlil qilishni maqsad qiladi. Tadqiqot asosan Xondamir, Hofiz Tanish Buxoriy, Mirxond, Muhammad Solih kabi tarixchilar asarlariga tayanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu maqolada tarixiy-solishtirma va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Manba sifatida XVI asrda yozilgan “Boburnoma”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asari, Mirxondning “Ravzat us-safo”si, shuningdek, Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridan foydalanildi.

Tahlil qilishda quyidagilarga e‘tibor qaratildi:

Siyosiy faoliyatga berilgan baholar.

Madaniy rivojlanishdagi faoliyatga oid ma‘lumotlar.

Manbalarda keltirilgan ziddiyatli fikrlar va ularning kontekstual talqini.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Siyosiy rolga oid baholar. Shayboniylarning siyosiy faoliyati o‘rta asr manbalarida bir qator jihatlar bilan tavsiflanadi:

1. Markaziy hokimiyatni tiklash: Hofiz Tanish Buxoriy Shayboniylar sulolasining siyosiy barqarorlikni ta‘minlashdagi rolini yuqori baholab, ularni “islom dini posbonlari” sifatida ulug‘lagan.

2. Harbiy yurishlar va g‘alabalar: Xondamirning asarlarida Shayboniylarning harbiy muvaffaqiyatlari ko‘proq maqtalgan, lekin ba‘zi manbalarda ularning harbiy tajovuzkorlik siyosati tanqid qilingan.

Madaniy homiylik faoliyati

1. Madaniy obidalar qurilishi: Shayboniy hukmdorlar qurdirgan masjid, madrasalar va saroylar madaniy yuksalishning timsoli sifatida talqin qilingan. Masalan, Hofiz Tanish Shayboniylarning madaniy qurilishlar orqali Movarounnahrni islom dunyosidagi muhim markazga aylantirganini yozadi.

2. Ilm va san‘atni rivojlantirish: Xondamirning yozishicha, Shayboniylar davrida ko‘plab olimlar va san‘atkorlar homiylik bilan ta‘minlangan, bu esa ilmiy va adabiy merosning boyishiga olib kelgan.

Shayboniylarning siyosiy va madaniy faoliyatiga oid baholar o‘rta asr tarixchilarining qarashlari bilan bog‘liq ravishda turlicha talqin etiladi. Hofiz Tanish kabi tarixchilar Shayboniylar hukmronligini, xususan Shaybonixonni “...ul adolatli podshoh (Shayboniyxon) hamisha kofir va itoatsizlarga nisbatan g‘azot va jihod qilishga, dinsiz dushmanlarni daf‘ qilishga, shaytonlar toifasiga kirgan zulm egalarini tomiri bilan sug‘urishga yuz tutgan edi” deya ta‘riflagan bo‘lsa, Muhammad Solih o‘zining “Shayboniynoma” dostonida;

“...Tengrinining soyasi Shayboniyxon,

Kim ani qo‘ydi xalifa rahmon.

G‘aybdin oti Muhammad bo‘ldi,

Qobili davlati sarmad bo‘ldi.

Borchaning yaxshilik oning qoshida,

Borchaning davlati oning boshida.

Suyubon asrag‘oni Qur‘ondur

Yugurib quvlag‘oni shaytondur...” deya Shayboniyxonga yuksak baho beradi. Boshqa manbalar, masalan, “Boburnoma”da “Yana har necha kunda bir bemaza bayt yozar va minbarda o‘qitib, Chorsuga o‘tirib, shahar elidan hadya olardi. Garchi Shayboniyxon saharxez, besh vaqt namozni tark qilmaydigan, qiroat ilmini tuzukkina biladigan kishi bo‘lsa-da, lekin bunday go‘llarcha, ablahlarcha, kofirlarcha so‘z va qilmishlar undan ko‘p sodir bo‘lardi”, -deya tanqid qilingan.

Manbalardagi ziddiyatlar

Manbalardagi qarashlarning turlicha bo‘lishi tarixchilar yashagan davr va ularning siyosiy qarashlariga bog‘liq. Masalan, Xondamir Shayboniylarni markazlashgan hokimiyatni ta‘minlagan davlat arboblari sifatida ta‘riflaydi, lekin ba‘zi jihatlarida ularning o‘zaro ichki nizolariga ham e‘tibor qaratadi.

Bugungi tarixshunoslik uchun ahamiyati

Shayboniylarning o‘rta asr manbalaridagi bahosi ularning tarixdagi rolini kengroq yoritishga imkon beradi. Ularning siyosiy va madaniy faoliyatini zamonaviy tadqiqotlarda tahlil qilish orqali Shayboniylar tarixining yangi qirralarini ochish mumkin.

XULOSA. O‘rta asr manbalarida Shayboniylarning siyosiy va madaniy roli ijobiy va tanqidiy baholangan. Ular Movarounnahrda siyosiy barqarorlikni ta‘minlab, madaniy rivojlanishga hissa qo‘shgan. Ushbu sulolaning tarixiy ahamiyatini o‘rganish zamonaviy

tarixshunoslik uchun muhim bo‘lib, bu davrning siyosiy va madaniy yutuqlarini yanada chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1]. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma (“Sharafnomayi shohiy”). Birinchi kitob; Fors tilidan S.Mirzayev tarj.; So‘z boshi va izohlar muallifi: B. Ahmedov.—T.: “Sharq”, 1999.-416 b.

[2]. Xondamir. “Makorim ul-axloq”. Toshkent; O‘zFAN, 1941.

[3]. Mirxond. “Ravzat us-safo.”

[4]. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma” (Tahrir hayati A.Qayumov, X.Sultonov, B.Alimov va boshq.;) Xalqaro Bobur fondi.-T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2008. 288 b.

[5]. Zamonaviy tadqiqotlar va maqolalar.

[6]. Muhammad Solih. “Shayboniynoma” dostoni. (Tahrir hayati A.Qayumov va boshq.; Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi E.Shodiyev).-T.: Adabiyot va san’ant nashriyoti, 1989.-336 b.-(O‘zbek adabiyoti bo‘stoni) .